



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI
HOKIMINING
QARORI**

2025-yil 12-fevral

63-4-0-Q/25

Qashqadaryo viloyati
hokimligi

**2025-yilda Qashqadaryo viloyatida Olimpiya va Paralimpiya harakati,
sport ta’limi va seleksiya hamda ommaviy sportni yangi bosqichga olib
chiqish va aholi jismoniy faolligini oshirish bo’yicha
chora-tadbirlarni amalga oshirish to’g’risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to’g’risida”gi qonunining 12-moddasi ijrosini hamda Qashqadaryo viloyatida jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish, aholini jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalb etish, hududiy sport federatsiyalari (uyushmalari) faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, olimpiya va paralimpiya sport turlarini rivojlantirish orqali nufuzli xalqaro sport musobaqalari, jumladan Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlariga sportchilarimizning har tomonlama muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi qonunining 6-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Olimpiya va Paralimpiya harakati, sport ta’limi va seleksiya hamda ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish va aholi jismoniy faolligini oshirish yuzasidan Qashqadaryo viloyatida 2025-yilda amalga oshiriladigan ishlar bo’yicha “yo‘l xaritasi” (keyingi o‘rinlarda - **yo‘l xaritasi**) **1-ilovaga**;

Qashqadaryo viloyatida 2025-yilda erishiladigan jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo’yicha erishiladigan maqsadli ko‘rsatkichlar **2-ilovaga**;

2025-yilda hududiy sport federatsiyalari (uyushmalari) bilan **“sport qabullari”** o‘tkazish bo’yicha reja-jadvali **3-ilovaga muvofiq** tasdiqlansin.

2. Viloyat hokimining o‘rinbosari (**A.Qobilov**), viloyat sport boshqarmasi (**V.Ro‘ziyev**):

jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy shug'ullanadigan aholi ulushi joriy yilda kamida **38 foizga** yetkazish;

viloyat yoshlarining sportga qiziqishlarini kuchaytirish maqsadida tajribali va taniqli sportchilar ishtirokida motivatsion uchrashuvlar tashkil etish tizimi yo'lga qo'yish;

Olimpiya va Paralimpiya o'yinlariga tayyorgarlik ko'rayotgan sportchilarning ijtimoiy-maishiy va moddiy ta'minotini yaxshilash bo'yicha zarur chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirib borish;

olimpiya sport turlari bo'yicha sport federatsiyalari (uyushmalari)ning hududiy bo'linmalarini faoliyatini qo'llab-quvvatlash, moliyaviy va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida ular hududiy yirik davlat tashkilotlariga biriktirish;

mahalliy hokimliklar, davlat ishtirokidagi tijorat banklari va korxonalar va oliy ta'lim muassasalarida jamoaviy sport turlari bo'yicha sport klublari tashkil etish;

jamoviy sport turlari bo'yicha mahalliy hokimliklar kesimida "**Hokim kubogi**", korxona va tashkilotlar kesimida "**Rahbar kubogi**" musobaqalari o'tkazib borish;

xususiy sport klublari faoliyatini yo'lga qo'yish va ularni qo'llab-quvvatlash choralari ko'rish;

mazkur qarorda va "Yo'l xaritasi"da ko'zda tutilgan chora-tadbirlarning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi **har haftada bir marotaba** viloyat hokimi huzurida tuman (shahar) hokimlari, viloyat sport boshqarmasi, hududiy sport federatsiyalari va davlat sport ta'lim muassasalari ishtirokida muhokama qilish choralarini ko'rsin.

3. Viloyat hokimligi axborot xizmati (A.Sodiqov) mazkur qaror rasmiy e'lon qilinishini va "**<https://gov.uz/oz/qashqadaryo>**" veb-saytiga joylashtirilishini ta'minlasin.

4. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosari A.Qobilov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi



M.Azimov

Qashqadaryo viloyat hokimining
2025-yil 12-fevraldagi
63-4-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**Olimpiya va Paralimpiya harakati, ixtisoslashtirilgan va ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish hamda aholi jismoniy faolligini oshirish bo'yicha Qashqadaryo viloyatida 2025-yilda amalga oshiriladigan ishlar
"YO'L XARITASI"**

T/r	Samaradorlik ko'rsatkichlari	Chora-tadbirlar/amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyaviy manbasi	Mas'ul ijrochilar
I. Olimpiya va Paralimpiya harakatini rivojlantirish					
1.	Olimpiya va Paralimpiya o'yinlariga terma jamoalar zaxirasini kuchaytirish maqsadida ustuvor va istiqbolli sport turlaridan musobaqalar o'tkazish.	1. Olimpiya va Paralimpiya sport turlari bo'yicha uch bosqichli "Yangi O'zbekiston Olimpiya cho'qqilari" hamda viloyat kubogi va chempionatlari sport musobaqalari dasturini ishlab chiqish. 2. Sport turlari bo'yicha o'smirlar, yoshlar va kattalar o'rtasida musobaqalarni tashkil etish va o'tkazish. <i>Jumladan:</i> Olimpiya sport turlari bo'yicha 130 ta musobaqalar Paralimpiya sport turlari bo'yicha 40 ta musobaqa tashkil	2025-yil davomida I chorakda II chorakda III chorakda da IV chorakda	Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining hududiy kalendar rejalari mablag'lari 2,0 mlrd. so'm	Qashqadaryo viloyati hokimligi (<i>A.Qobilov</i>), Qashqadaryo viloyati sport boshqarmasi (<i>V.Ro'ziyev</i>), barcha tuman (shahar) hokimliklari

		etiladi. Bunda: 30 ta; 40 ta; 55ta; 45 ta.			
2.	Sport turlari bo'yicha 28 ta respublika va hududiy o'quv-yig'in mashg'ulotlarini o'tkazish.	1. Qarshi olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazini o'quv-yig'inlariga tayyorlash. 2. Sport turlari bo'yicha o'quv-yig'in mashg'ulotlarini o'tkazish uchun respublika federatsiyalari bilan birgalikda reja-grafik ishlab chiqish. 3 . O ' q u v - y i g ' i n mashg'ulotlarini yuqori saviyada o'tkazish. Bunda: 8 ta; 10 ta; 10 ta.	yil yakuniga qadar I chorakda II chorakda III chorakda	Ijrochilar mablag'lari 1,0 mlrd. so'm	Qashqadaryo viloyati hokimligi (<i>A.Qobilov</i>), Qashqadaryo viloyati sport boshqarmasi (<i>V.Ro'ziyev</i>), barcha tuman (shahar) hokimliklari
3.	Xalqaro va kompleks sport musobaqalarda 150 nafar sportchilar ishtirokini ta'minlash.	1. 2025-yil o'tkaziladigan xalqaro va kompleks musobaqalarda ishtirok etuvchi terma jamoalar tarkibini shakllantirish. 2. Xalqaro va kompleks musobaqalarga puxta tayyorgarlik bo'yicha aniq	fevral mart	Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining respublika va hududiy kalendar rejasi mablag'lari 2,0 mlrd. so'm	Qashqadaryo viloyati hokimligi (<i>A.Qobilov</i>), Qashqadaryo viloyati sport boshqarmasi (<i>V.Ro'ziyev</i>), barcha tuman

		chora-tadbirlarni belgilash. 3. Musobaqalarga tayyorgarlik bo'yicha sportchilar bilan individual ishlab, munosib ishtirokini ta'minlash. Bunda: 20 nafar; 40 nafar; 50 nafar; 40 nafar.	yil yakuniga qadar I chorakda II chorakda III chorakda IV chorakda		(shahar) hokimliklari
4.	Sport turlari bo'yicha viloyatdagi idora va tashkilotlar huzurida 40 ta sport klublar faoliyatini yo'lga qo'yish.	1. Sportning o'yin (jamoaviy) turlari bo'yicha sport klublari faoliyatini yo'lga qo'yish. Bunda: 5 ta; 10 ta; 10 ta; 15 ta. 2. Bosqichma-bosqich hududiy sport klublarini rivojlantirish va moliyalashtirish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirib borish.	2025-yil yakuniga qadar I chorakda II chorakda III chorakda IV chorakda	—	Qashqadaryo viloyati hokimligi (<i>A.Qobilov</i>), Qashqadaryo viloyati sport boshqarmasi (<i>V.Ro'ziyev</i>), barcha tuman (shahar) hokimliklari, idora va tashkilotlar rahbarlari
5.	Viloyatda qayiqli sport turlarini moddiy-texnik bazasini rivojlantirish.	1. Nishon tuman Tallimarjon suv ombori hududida joylashgan "Solyanka" ko'lida akademik eshkak eshish, baydarka va kanoeda eshkak eshish sport bazasini tashkil etish.	III chorakda	Mahalliy byudjet va homiylik mablag'lari 4,5 mlrd. so'm	Qashqadaryo viloyati hokimligi (<i>A.Qobilov</i>), Qashqadaryo viloyati sport boshqarmasi

		2. Yangi tashkil etiladigan qayiqli sport turlari bazasi uchun zarur sport jihozlari, uskunalari va qayiqnlarni xarid qilish.		Sport vazirligi va Milliy olimpiya qo'mitasi mablag'lar 1,5 mlrd. so'm	(V.Ro'ziyev), barcha tuman (shahar) hokimliklari
6.	Qashqadaryo viloyatidagi davlat oliy ta'lim muassasalarida sport klublari faoliyatini yo'lga qo'yish.	1. Har bir oliy ta'lim muassasasida ustuvor, istiqbolli va rivojlanayotgan toifadagi sport turlari bo'yicha kamida 1 tadan sport klubini tashkil etish. Jumladan: 5 ta; 10 ta. 2. Sport klublari sportchilari mashg'ulotlarni olib borishi uchun zarur infratuzilmaga ega bo'lmagan oliy ta'lim muassasalariga viloyatdagi mavjud sport inshootlaridan foydalanishni tashkil etish. 3. Oliy ta'lim muassasalarining sport klublari faoliyatiga ilmiy-uslubiy ko'maklashish.	yil yakuniga qadar II chorakda III chorakda 2025-yil	—	Qashqadaryo viloyati hokimligi (A.Qobilov), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi viloyat boshqarmasi (O.Mavlonov), Qashqadaryo viloyati sport boshqarmasi (V.Ro'ziyev)
7.	Oliy ta'lim muassasalari sport klublari o'rtasida	1. Oliy ta'lim muassasalarining jamoaviy sport turlari bo'yicha sport klublari o'rtasida o'quv yili	2025-yil	Ijrochilar mablag'lar 500,0 mln. so'm	Qashqadaryo viloyati hokimligi (A.Qodirov),

	120 ta sport musobaqalarini tizimli tashkil qilib borish.	davomida “Talabalar ligasi” va “Oliy ta’lim kubogi” musobaqalarini o’tkazish. Bunda: 5 ta; 25 ta; 45 ta; 40 ta. 2. Oliy ta’lim muassasasi miqyosida “Rektor kubogi” sport musobaqalarini o’tkazib borish. 3. Jamoaviy sport turlari bilan oliy ta’lim muassasalari talabalarini qamrab olish.	I chorakda II chorakda III chorakda IV chorakda yil yakuniga qadar		Qashqadaryo viloyati sport boshqarmasi (<i>V.Ro’ziyev</i>), barcha tuman (shahar) hokimliklari
8.	Shahrisabz shahrida o’tkaziladigan “Amir Temur” xalqaro kurash musobaqasi davomida foydalanish uchun 2 komplekt kurash gilami ajratish.	O‘zbekiston kurash federatsiyasi mablag‘lari hisobidan kurash gilamini xarid qilish hamda O‘zbekiston kurash federatsiyasi Qashqadaryo viloyat bo‘limiga yetkazib berish.	oktabr	O‘zbekiston kurash federatsiyasi mablag‘lari, mahalliy byudjet va homiylik mablag‘lari 160,0 mln. so‘m	Qashqadaryo viloyati hokimligi (<i>A.Qobilov</i>), Qashqadaryo viloyati sport boshqarmasi (<i>V.Ro’ziyev</i>), Barcha tuman (shahar) hokimliklari
9.	Qarshi Olimpiya va paralimpiya markaziga	1. Qarshi Olimpiya va paralimpiya markaziga 2 komplekt dzyudo tatamisi va	mart	O‘zbekiston takvondo va dzyudo	Qashqadaryo viloyati hokimligi (<i>A.Qobilov</i>),

	2 komplekt dzyudo tatamisi va 2 komplekt taekvondo WT elektron protektori ajratish.	2 komplekt taekvondo WT elektron protektori ajratish bo'yicha texnik talablarni o'rganish. 2. Zarur texnik talablar asosida xaridni amalga oshirish uchun Sport vazirligining bu boradagi 2025-yilgi reja dasturiga kiritish. 3. Xaridni amalga oshirish va ta'lim muassasasiga foydalanishga topshirilish.	iyul	federatsiyalari hamda 2025-yilgi sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining respublika kalenda r rejasi mablag'lari 193,0 mln. so'm	Qashqadaryo viloyati sport boshqarmasi (<i>V.Ro'ziyev</i>), Barcha tuman (shahar) hokimliklari
10.	Olimpiya sport turlari bo'yicha 22 ta sport federatsiya (assotsiatsiya)lari faoliyatini qayta ko'rib chiqish.	1. Hududiy federatsiyalar rahbarligiga munosib nomzodlarni taklif etish. 2. Hududiy sport federatsiya (assotsiatsiya)larini yirik tashkilotlarga biriktirish. 3. Sport federatsiyalari hududiy bo'limlarini joylashuvi bo'yicha zarur choralarini ko'rish. 4. Hududiy sport federatsiyalarini qo'llab-quvvatlash, moliyaviy va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash.	fevral mart aprel may	Ijrochilar mablag'lari 1,0 mlrd. so'm	Qashqadaryo viloyati hokimligi (<i>A.Qobilov</i>), Qashqadaryo viloyati sport boshqarmasi (<i>V.Ro'ziyev</i>), barcha tuman (shahar) hokimliklari
11.	Yozgi Olimpiya	1. Milliy olimpiya qo'mitasi	fevral	—	Qashqadaryo

	va Paralimpiya o'yinlariga tayyorgarlik ko'rayotgan sport turlari bo'yicha terma jamoalar tarkiblarini shakllantirish.	bilan birgalikda terma jamoalarning asosiy va zaxira tarkiblari hamda trener, shifokor va boshqa sport mutaxassislari kontingentini tasdiqlash. 2. Olimpiya o'yinlarida ishtirok etishi kutiladigan hududiy sportchilar va ularning trenerlari tarkibini shakllantirish. 3. Paralimpiya o'yinlarida ishtirok etishi kutiladigan hududiy sportchilar va ularning trenerlari tarkibini shakllantirish.	mart		viloyati hokimligi (<i>A.Qobilov</i>), Qashqadaryo viloyati sport boshqarmasi (<i>V.Ro'ziyev</i>), barcha tuman (shahar) hokimliklari
12.	Olimpiya va Paralimpiya o'yinlariga tayyorgarlik ko'rayotgan sportchilarning ijtimoiy-maishiy va moddiy ta'minotini yaxshilash bo'yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish.	1. Sportchilarning yashash va tayyorgarlik ko'rish joylaridagi shart-sharoitlarni o'rganish. 2. Sportchilarning ijtimoiy-maishiy va moddiy ta'minotini yaxshilash choralari ko'rish va homiylarni biriktirish. 3. Sportchilarning ijtimoiy - maishiy va moddiy ta'minotini yaxshilash bo'yicha mablag'larni ajratish. Bunda:	2025-yil yakuniga qadar I chorakda II chorakda III chorakda	Sport federatsiya (assotsiyatsiya)larg a biriktirilgan tashabbuskor homiylar va mahalliy byudjet mablag'lari 2,0 mlrd. so'm	Qashqadaryo viloyati hokimligi (<i>A.Qodirov</i>), Qashqadaryo viloyati sport boshqarmasi (<i>V.Ro'ziyev</i>)

[illegible]

15.	Hududlarda muntazam shug'ullanuvchi yoshlar sonini oshirish, sport maktablaridagi o'quvchi-sportchilarni 55 ming nafarga yetkazish.	1. Ommaviy sport musobaqalarida natija ko'rsatgan 10 ming nafar iqtidorli yoshlarni sport maktablariga seleksiya qilish. Bunda: 1 000 nafar; 4 000 nafar; 2 000 nafar; 3 000 nafar. 2. Sport-ta'lim muassasalarida sportchilarni mashg'ulotlardagi davomatini "Face ID" tizimi orqali yuritilishini to'liq yo'lga qo'yish. 3. "ERP Sport" boshqaruv tizimiga kiritilgan ma'lumotlar dolzarbligi va haqqoniyligini ta'minlash.	yil yakuniga qadar I chorakda II chorakda III chorakda IV chorakda	—	Qashqadaryo viloyati hokimligi (<i>A.Qobilov</i>), Qashqadaryo viloyati sport boshqarmasi (<i>V.Ro'ziyev</i>), tuman va shahar hokimliklari
16.	Davlat sport ta'lim muassasalarida sport bilan shug'ullanayotgan sportchi-o'quvchilarini sportchi pasporti bilan ta'minlashni 100 foizga yetkazish.	1. Sportchi pasporti oladigan o'quvchilarning ro'yxatini shakllantirish. 2. Shakllantirilgan ro'yxat asosida sportchi o'quvchilarni sportchi pasporti bilan ta'minlash. Bunda: 75 foiz; 85 foiz;	mart 2025-yil I chorakda II chorakda	—	Qashqadaryo viloyati hokimligi (<i>A.Qobilov</i>), Qashqadaryo viloyati sport boshqarmasi (<i>V.Ro'ziyev</i>)

		100 foiz.	III chorakda		
17.	Tajriba asosida 4 ta tuman (shahar)dagi sport maktablarini 2 tadan sport turlariga ixtisoslashtirish; G'uzor tumani sport maktabi: 1) <i>gandbol</i>, 2) <i>kurash</i>; Shahrisabz tumani sport maktabi: 1) <i>yengil atletika</i>, 2) <i>dzyudo</i>; Qarshi shahar sport maktabi: 1) <i>Yunon - rum kurashi</i>, 2) <i>og'ir atletika</i>; Koson tuman 2-son sport maktabi: 1) <i>dzyudo</i>, 2) <i>futbol</i>; sport turlarini natijadorlik	Ixtisoslashayotgan sport turidan kelib chiqib, quyidagilarni nazarda tutuvchi aniq maqsad va rejalarni belgilash: sport turi bilan shug'ullanadigan sportchilar sonini 10 foizga oshirish; 200 nafar razryadli va unvonli sportchilarni tayyorlash; trenerlar sifat tarkibi va sonini 15 foizga oshirish; hududiy terma jamoalar tarkibiga yetkazib beriladigan sportchilar kontingentini 25 foizga yetkazish; ixtisoslashayotgan sport turlaridan milliy terma jamoalarga sportchilarni yetkazib berish.	Mart 2025-yil yakuniga qadar	—	Qashqadaryo viloyati hokimligi (<i>A.Qobilov</i>), Qashqadaryo viloyati sport boshqarmasi (<i>V.Ro'ziyev</i>), tuman (shahar)lar hokimliklari

	ko'rsatkichlarini belgilash.				
18.	Sport ta'lim muassasalarida Adaptiv sport turlari bilan shug'ullanuvchi nogironligi bo'lgan shaxslar qamrovini kamida 35 foizga oshirish.	1. Har bir sport maktabida kamida 1 tadan sport turlari bo'yicha trenerlarni o'qitib, ular orqali tegishli adaptiv sport guruhlarida nogironligi bo'lgan shaxslarni qamrab olish. 2. Barcha sport maktablarida paralimpiya sport guruhlarini tashkil etish. 3. Sport maktablarini adaptiv sport bilan shug'ullantirish uchun zarur bo'lgan sport inventarlari bilan ta'minlash. 4. Adaptiv sport turlari bilan shug'ullanuvchi nogironligi bo'lgan shaxslar qamrovini oshirish. Bunda: 10 foiz; 20 foiz; 35 foiz.	Mart Sentyabr Oktyabr II chorakda III chorakda IV chorakda	—	Qashqadaryo viloyati hokimligi (<i>A.Qobilov</i>), Qashqadaryo viloyati sport boshqarmasi (<i>V.Ro'ziyev</i>), tuman (shahar)lar hokimliklari
19.	Ayrim sport maktablarini paralimpiya sport turlariga ixtisoslashtirish bo'yicha chora-	Ixtisoslashayotgan sport turidan kelib chiqib, quyidagilarni nazarda tutuvchi aniq maqsad va rejalarni belgilash: sport turi bilan shug'ullanadigan sportchilar	mart yil yakuniga	—	Qashqadaryo viloyati hokimligi (<i>A.Qobilov</i>), Qashqadaryo viloyati sport boshqarmasi

	tadbirlarni amalga oshirish. Muborak tumani sport maktabi 1) Para taekvondo, 2) Para golbol; Qarshi tumani sport maktabi 1) Para stol tennis, 2) Para dzyudo Nishon tumani sport maktabi 1) Para voleybol, 2) Para yengil atletika	sonini 10 foizga oshirish; razryadli va unvonli sportchilarni tayyorlash; trenerlar sifat tarkibi va sonini oshirish; hududiy terma jamoalar tarkibiga yetkazib beriladigan sportchilar kontingentini 25 foizga yetkazish; ixtisoslashayotgan sport turlaridan milliy terma jamoalarga sportchilarni yetkazib berish.	qadar		(V.Ro'ziyev), tuman (shahar)lar hokimliklari
20.	Sport sohasi mutaxassislarini malaka oshirish kurslarida o'qitish.	1. Malaka oshirishga jalb etiladigan sport mutaxassislarining ro'yxatini shakllantirish va ularni o'qitish reja-grafigini tasdiqlash. 2. Reja-grafik asosida 310 nafar sport sohasi mutaxassislarini malaka oshirish kurslarida o'qitish. Bunda: 129 nafar; 136 nafar;	yanvar grafikka asosan I chorakda II chorakda III chorakda IV chorakda	—	Qashqadaryo viloyati hokimligi (A.Qobilov), Qashqadaryo viloyati sport boshqarmasi (V.Ro'ziyev)

		21 nafar; 24 nafar.			
21.	Xususiy sport klublari faoliyatini qo'llab-quvvatlash.	1. Mavjud sport klublarini xatlovdan o'tkazish va ularning ma'lumotlar bazasini yaratish. 2. Xususiy sport klublari faoliyatini kengaytirish va ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha targ'ibot ishlarini tashkil etish. 3. Xususiy sport klublari faoliyatini tashkil etishga ko'maklashish. Bunda: 20 ta; 25 ta; 35 ta.	fevral-mart aprel-iyul II chorakda III chorakda IV chorakda	—	Qashqadaryo viloyati hokimligi (<i>A.Qobilov</i>), Sport vazirligi (<i>Sh.Maxmudov</i>), Qashqadaryo viloyati sport boshqarmasi (<i>V.Ro'ziyev</i>), tuman (shahar)lar hokimliklari
22.	Shahar va tumanlar kesimida sport turlari bo'yicha 405 ta sport tadbirlarini tashkil qilish.	1. Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining tuman va shahar kalendar rejalarini shakllantirish va tasdiqlash. 2. Sport turlari bo'yicha o'tkaziladigan sport musobaqalarini yuqori saviyada tashkil qilish va o'tkazish. Bunda 90 ta; 100 ta; 85 ta; 130 ta.	Fevral 2025-yil yakuniga qadar I chorakda II chorakda III chorakda IV chorakda	Ijrochilar mablag'lari 2,0 mlrd.so'm	Qashqadaryo viloyati hokimligi (<i>A.Qobilov</i>), Qashqadaryo viloyati sport boshqarmasi (<i>V.Ro'ziyev</i>), tuman (shahar)lar hokimliklari

23.	Tuman (shahar)larning ixtisoslashuviga ko'ra sport ta'lim muassasalarida aholi soniga nisbatan olimpiya sport turlarini ko'paytirish.	1. Sport ta'lim muassasalaridagi olimpiya sport turlarini xatlovdan o'tkazish. 2. Xatlov natijasida aholi soniga nisbatan olimpiya sport turlari kam ochilgan sport maktablarida olimpiya sport turlari bo'yicha bo'limlarni ochish chora-tadbirlarni belgilash. 3. Sport ta'lim muassasalarida olimpiya sport turlari bo'yicha sonini ko'paytirish. Jumladan: a) aholisi 200 mingdan yuqori bo'lgan tuman (shahar)lardagi sport maktablarida kamida 20 ta; b) aholisi 150 mingdan 200 minggacha bo'lgan tuman (shahar)lardagi sport maktablarida kamida 15 ta; v) aholisi 150 minggacha bo'lgan tuman (shahar)lardagi sport maktablarida kamida 10 ta olimpiya sport turlarini ochish.	yanvar fevral 2025-yil yakuniga qadar	—	Qashqadaryo viloyati hokimligi (<i>A.Qobilov</i>), Qashqadaryo viloyati sport boshqarmasi (<i>V.Ro'ziyev</i>), tuman (shahar)lar hokimliklari
III. Ommaviy sportni rivojlantirish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish					
24.	Jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy	1. Joylarda aholining jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan	yil yakuniga qadar	Ijrochilar mablag'lari	Qashqadaryo viloyati hokimligi

	shug'ullanadigan aholi ulushini kamida 38 foizga yetkazish.	shug'ullanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish. 2. Mahallalarda aholining ommaviy sport bilan shug'ullanishlari uchun moddiy-texnik bazani mustahkamlash. 3. Umumta'lim, professional va oliy ta'lim muassasalarida tahsil oluvchilar o'rtasida ommaviy sport turlariga bosqichma-bosqich keng jalb qilish maqsadida targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish. 4. Joylarda ommaviy sport musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish orqali yil yakuniga qadar 1 mln 357 ming nafar aholini qamrab olish. Bunda: 610 000 nafar; 390 000 nafar; 250 000 nafar; 107 000 nafar.	I chorakda II chorakda III chorakda IV chorakda	2,0 mlrd.so'm	(A.Qobilov), Qashqadaryo viloyati sport boshqarmasi (V.Ro'ziyev), tuman (shahar)lar hokimliklari
25.	Nogironligi bo'lgan shaxslarni ommaviy sport musobaqalariga keng jalb qilish.	1. Sport musobaqalarida ishtirok etish istagi mavjud nogironligi bo'lgan yoshlar ro'yxatini shakllantirish. 2. Adaptiv sport turlari bo'yicha	fevral-mart	Ijrochilar mablag'lari 500,0 mln.so'm	Qashqadaryo viloyati hokimligi (A.Qobilov), Qashqadaryo viloyati sport

		ommaviy sport musobaqalarini tashkil etish hamda nogironligi bo'lgan shaxslarni keng jalb etish orqali 4 250 nafarga yetkazish. Bunda: 750 nafar; 1 000 nafar; 1 150 nafar; 1 350 nafar.	yil yakuniga qadar I chorakda II chorakda III chorakda IV chorakda		boshqarmasi <i>(V.Ro'ziyev)</i>
26.	Qashqadaryo viloyatida jismoniy tayyorgarlik sport sinovlarini o'tkazish.	1. Sport sinovlarini topshirish bo'yicha raqamlashtirilgan ariza berish tizimi yuzasidan targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish. 2. Hudud bo'yicha jami 316 ming nafar shaxs (<i>shundan, 294 ming nafar o'quvchi, 22 ming nafar aholi</i>)dan sport sinovlarini qabul qilish. Bunda: 10 ming nafar; 40 ming nafar; 116 ming nafar; 150 ming nafar. 3. Sport sinovlarini topshirib, tegishli daraja olgan fuqarolarni munosib rag'batlantirish.	yil yakuniga qadar I chorakda II chorakda III chorakda IV chorakda	-	Qashqadaryo viloyati hokimligi <i>(A.Qobilov)</i>, Qashqadaryo viloyati sport boshqarmasi <i>(V.Ro'ziyev)</i>, tuman (shahar)lar hokimliklari
27.	Qashqadaryo	1. Sport maydonchalarini barpo	fevral	Sport vazirligi	Qashqadaryo

	viloyatida qo'shimcha ravishda olis va chekka hududlardagi mahallalarda 16 ta sport maydonchalarini qurib, foydalanishga topshirish.	etish bo'yicha manzilli ro'yxatlarini ishlab chiqish. 2. Hududiy hokimliklar bilan birgalikda sport maydonchalari qurilishi uchun tegishli yer maydonlarini ajratish choralarini ko'rish. 3. Sport maydonchalarining belgilangan sifat ko'rsatkichlariga mos ravishda qurib foydalanishga topshirish. Bunda: 7 ta; 9 ta.	mart III chorakda IV chorakda	mablag'lari <i>loyiha-smeta</i> <i>hujjatlariga asosan</i>	viloyati hokimligi (<i>A.Qobilov</i>), Qashqadaryo viloyati sport boshqarmasi (<i>V.Ro'ziyev</i>) tuman (shahar)lar hokimliklari
28.	Mahallalarda ommaviy jismoniy faollik tadbirlarini tizimli yo'lga qo'yish.	1. Haftaning har payshanbasi " Jismoniy tarbiya va sport kuni " va dam olish kunlarida mahallardagi istirohat bog'lari va sport inshootlarida aholini sog'lomlashtirishga qaratilgan jismoniy tarbiya tadbirlarini o'tkazish. Bunda: 550 ta; 700 ta; 800 ta; 400 ta. 2. Har bir mahallada sport	yil yakuniga qadar har haftada I chorakda II chorakda III chorakda IV chorakda mart	Ijrochilar mablag'lari 200,0 mln.so'm	Qashqadaryo viloyati hokimligi (<i>A.Qobilov</i>), Qashqadaryo viloyati sport boshqarmasi (<i>V.Ro'ziyev</i>), tuman (shahar)lar hokimliklari

		tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishga mas'ullar ro'yxati hamda tadbirlar manzillarini tasdiqlash. 3. Mahalla aholisini sog'lomlashtirish tadbirlarida faol ishtirokini ta'minlash.	2025-yil		
29.	Viloyatda xalqaro va ommaviy sport tadbirlarini yuqori saviyada tashkil etish.	1. Olimpiya sport turlari bo'yicha xalqaro musobaqalarni tashkil etish. 2. Ommaviy sport musobaqalarini yuqori saviyada o'tkazish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan: 3. "Yangi nafas" va "Talaba yugur" ommaviy yugurish tadbirlarini Qarshi shahrida o'tkazish. 4. Besh tashabbus olimpiadasi musobaqalari modelida olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha umumta'lim maktab o'quvchilari, oliy va professional ta'lim muassasalari o'quvchilari, talabalari o'rtasida "A.Temur izdoshlari", "Maktablar ligasi", "Olimp sari ilk qadam" ommaviy	yil yakuniga qadar	Ijrochilar mablag'lari 2,0 mlrd.so'm	Qashqadaryo viloyati hokimligi (<i>A.Qobilov</i>), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi viloyat boshqarmasi (<i>O.Movlanov</i>), Qashqadaryo viloyati sport boshqarmasi (<i>V.Ro'ziyev</i>)

		sport musobaqalarini o'tkazish.			
30.	“Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida olimpiya, noolimpiya va milliy sport turlari bo'yicha besh bosqichli sport musobaqalarini tashkil etish.	1. Sport musobaqalarini o'tkazish dasturini ishlab chiqish. 2. Sport musobaqalari o'tkaziladigan sport ob'yektlari tayyorlash. 3. Sport musobaqalarini yuqori darajada tashkil etish va o'tkazish. Bunda: 832 ta; 200 ta; 50 ta.	fevral fevral mart-dekabr II chorakda III chorakda IV chorakda	Ijrochilar mablag'lari 1,0 mlrd.so'm	Qashqadaryo viloyati hokimligi <i>(A.Qobilov),</i> Yoshlar ishlari boshqarmasi <i>(A.Axmedov),</i> Qashqadaryo viloyati sport boshqarmasi <i>(V.Ro'ziyev),</i> tuman (shahar)lar hokimliklari
31.	Idora va tashkilotlar, xo'jalik birlashmalari, davlat ishtirokidagi tijorat banklari va korxonalar mehnat jamoasining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va jismoniy faollik darajasini oshirish.	1. Korxona tashkilotlari davlat ishtirokidagi tijorat banklari va boshqarma rahbarlari va xodimlarini jamoaviy sport turlariga jalb qilish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish. 2. Ish vaqtidan so'ng belgilangan kunlarda (haftada kamida bir marta) barcha boshqarma tashkilotlar, xo'jalik birlashmalari, davlat ishtirokidagi tijorat banklari va korxonalar mehnat jamoasining jamoaviy sport turlari bilan shug'ullanishini tashkil qilish.	2025-yil yakuniga qadar	Ijrochilar mablag'lari 1,0 mlrd.so'm	Qashqadaryo viloyati hokimligi <i>(A.Qobilov),</i> Qashqadaryo viloyati sport boshqarmasi <i>(V.Ro'ziyev),</i> tuman (shahar)lar hokimliklari

		3. Xodimlar o'rtasida jamoaviy sport turlari bo'yicha "Rahbar kubogi", "Hokim kubogi" musobaqalarini tashkil etish hamda bu orqali 20 ming nafar xodimlarni jamoaviy sport turlari bilan qamrab olish. Bunda: 3 000 nafar; 7 000 nafar; 6 000 nafar; 4 000 nafar;	I chorakda II chorakda III chorakda IV chorakda		
--	--	--	---	--	--

2025-yilda erishiladigan samaradorlik ko'rsatkichlari:

Aholini jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga jalb qilish	—	38	<i>(foiz)</i>
Hudud bo'yicha sport sohasida belgilanayotgan vazifalarni moliyalashtirish summasi	—	20,553	<i>(mlrd so'm)</i>
Mahallalarda sport maydonchalarni barpo etish	—	16	<i>(ta)</i>
Iqtidorli sportchi yoshlarni sport maktablariga seleksiya qilish	—	10 000	<i>(nafar)</i>
Yangi xususiy sport klublarini tashkil etish	—	80	<i>(ta)</i>

Qashqadaryo viloyat hokimining
2025-yil 12-fevraldagi
63-4-0-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Qashqadaryo viloyatida 2025-yilda erishiladigan jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo'yicha
MAQSADLI KO'RSATKICHLAR

T/r	Ko‘rsatkich nomi	O‘lchov birligi	2024 yil (fakt)	2025 yil (reja)	Shu jumladan			
					I chorak	II chorak	III chorak	IV chorak
I. Olimpiya va Paralimpiya harakatini rivojlantirish								
1.	Sport turlari bo‘yicha unvonli (sport ustasi, xalqaro toifadagi sport ustasi) yangi sportchilarni tayyorlash	nafar	20	30	6	8	8	8
2.	Sportchilarning o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlari va nufuzli musobaqalarda ishtiroki bilan bog‘liq xarajatlarni moliyalashtirish	mln so‘m		1 000	250	250	250	250
3.	Terma jamoalar tayyorgarlik olib boradigan sport inshootlari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash	ta		7	1	2	2	2
4.	Sport turlari bo‘yicha “Yangi O‘zbekiston Olimpiya cho‘qqilari” sport musobaqalarining mintaqaviy va hududiy bosqichlarini tashkil etish va o‘tkazish	ta		12	1	2	6	3
II. Sportda seleksiya va ta’lim tizimini takomillashtirish								
5.	Sport ta’lim muassasalarida muntazam shug‘ullanuvchi yoshlar kontingentini oshirish	ming nafar	31	55	36	44	50	55
6.	Sport maktablari sportchi-o‘quvchilari davomatini “Face ID” tizimi orqali amalga oshirishni to‘liq yo‘lga qo‘yish	foiz	71	100	75	80	90	100
7.	Ommaviy sport musobaqalaridan iqtidorli sportchi yoshlarni sport maktablariga seleksiya qilish	nafar	2002	10000	1500	2500	3000	3000

8.	Adaptiv sport turlari bilan muntazam shug‘ullanuvchi nogironligi bo‘lgan shaxslar qamrovini oshirish	nafar	701	1121	-	70	140	210
9.	Sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktablari infratuzilmasini yaxshilash	ta	–	4	–	1	3	–
10.	Sport sohasidagi mutaxassislar malakasini oshirish va qayta tayyorlash	nafar		310	129	136	21	24
11.	Mahallalarda zamonaviy yangi xususiy sport klublarini tashkil etish	ta	–	80	-	20	25	35
12.	Oliy ta’lim muassasalarida belgilan sport turlari bo‘yicha sport klublari faoliyatini yo‘lga qo‘yish	ta		15	-	5	10	-
13.	Olimpiya va Paralimpiya markazi tomonidan milliy terma jamoalarga sportchi yetkazib berish ko‘rsatkichini oshirish	foiz	28	32	31	-	-	32
14.	Sport ta’lim muassasalarini bosqichma-bosqich o‘zini-o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish orqali davlat byudjeti mablag‘larini iqtisod qilish	mln so‘m	-	300	100	50	50	100
III. Ommaviy sportni rivojlantirish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish								
15.	Ommaviy sport musobaqalaridagi aholi qamrovini kengaytirish	ming nafar	1 188	1 357	610	390	250	107
16.	Nogironligi bo‘lgan shaxslarni adaptiv sport turlari bo‘yicha ommaviy sportga jalb qilish	nafar	701	4 250	750	1 000	1 150	1 350
17.	Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishga jalb qilingan aholi ulushini oshirish	foiz	33	38	18	28	35	38
18.	Aholidan maxsus talablar asosida sport sinovlarini qabul qilish	ming nafar		316	10	40	116	150
19.	Olis va chekka hududlardagi mahallalarda namunaviy tipdagi sport maydonchalarini barpo etish	ta	24	16	-	7	9	-
20.	Davlat budjeti mablag‘lari samaradorligini baholash yuzasidan sport tashkilotlarini audit nazoratidan o‘tkazish	ta	3	16	4	4	4	4

Qashqadaryo viloyat hokimining
2025-yil 12-fevraldagi
63-4-0-Q/25-son qaroriga
3-ilova

**Qashqadaryo viloyati hokimi tomonidan 2025-yilda Olimpiya harakatini rivojlantirish
yuzasidan sport sohasi vakillari bilan “sport qabullari”ni o‘tkazish
REJA-JADVALI**

T/r	Uchrashuv joyi	Uchrashuv vaqti	Ishtirok etadigan kontingent	Uchrashuv tashkil etishga mas’ular
1.	Qarshi olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi	I chorak mart - aprel	Viloyat ixtisoslashtirilgan sport maktab direktorlari, direktor o‘rinbosarlari, Qarshi Olimpiya va Paralimpiya sport turlari tayyorlash markazi direktori, sport ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, bosh trenerlari, Olimpiya va Paralimpiya sport turlari bo‘yicha federatsiya (assotsiatsiya) rahbarlari, biriktirilgan homiy tashkilot vakili.	Viloyat hokimining o‘rinbosari (A.Qobilov), viloyat sport boshqarmasi (V.Ro‘ziyev)
2.	Viloyat sport boshqarmasi	II chorak Iyun - iyul	Viloyat ixtisoslashtirilgan sport maktab direktorlari, direktor o‘rinbosarlari, Qarshi Olimpiya va Paralimpiya sport turlari tayyorlash markazi direktori, sport ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, bosh trenerlari, Olimpiya va Paralimpiya sport turlari bo‘yicha federatsiya (assotsiatsiya) rahbarlari, biriktirilgan homiy tashkilot vakili.	Viloyat hokimining o‘rinbosari (A.Qobilov), viloyat sport boshqarmasi (V.Ro‘ziyev)
3.	Viloyat yoshlar	III chorak	Viloyat ixtisoslashtirilgan sport maktab	Viloyat hokimining o‘rinbosari

	ishlari agentligi	avgust - sentyabr	direktorlari, direktor o‘rinbosarlari, Qarshi Olimpiya va Paralimpiya sport turlari tayyorlash markazi direktori, sport ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, bosh trenerlari, Olimpiya va Paralimpiya sport turlari bo‘yicha federatsiya (assotsiatsiya) rahbarlari, biriktirilgan homiy tashkilot vakili.	(A.Qobilov), viloyat sport boshqarmasi (V.Ro‘ziyev)
4.	Viloyat hokimligi	IV chorak noyabr - dekabr	Viloyat ixtisoslashtirilgan sport maktabi direktorlari, direktor o‘rinbosarlari, Qarshi Olimpiya va Paralimpiya sport turlari tayyorlash markazi direktori, sport ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, bosh trenerlari, Olimpiya va Paralimpiya sport turlari bo‘yicha federatsiya (assotsiatsiya) rahbarlari, biriktirilgan homiy tashkilot vakili.	Viloyat hokimining o‘rinbosari (A.Qobilov), viloyat sport boshqarmasi (V.Ro‘ziyev)